

DEMOGRAFIK OMILLARNING GEOKRIMINOGEN VAZIYATGA
TA'SIRI (QO'QON SHAHRI MISOLIDA)

Komilova N.K.,
Maxmudov B.X.,

O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston

Аннотация: В данной статье изучается роль и роль демографических факторов в формировании геокриминогенной ситуации регионов. Фактически формирование геокриминогенной ситуации напрямую связано с численностью населения, плотностью, возрастно-половым, национально-этническим составом, миграционными движениями региона. В качестве объекта исследования был взят город Кохан. Причина в том, что в городе за последние годы самый высокий уровень преступности в Ферганской области.

Ключевые слова: геокриминогенная обстановка, плотность населения, возрастно-половой и национально-этнический состав населения, миграция.

Abstract: This article studies the role and role of demographic factors in the formation of the geocriminogenic situation of regions. In fact, the formation of the geocriminogenic situation is directly related to the population size, density, age-sex, national-ethnic composition, migration movements of the region. The city of Kokhan was taken as the object of the study. The reason is that in recent years the city has had the highest crime rate in the Fergana region.

Key words: geocriminogenic situation, population density, population age-sex, national-ethnic composition, migration.

Ilmiy adabiyotlarda hozirgi kunga qadar jinoyatchilikning kelib chiqish omillari to'g'risida aniq bir to'xtam mavjud emas. Jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lgan holatlar va omillar zanjiri uzoq, murakkab va turli xildir, shuningdek, omillarning ta'sir etish masshtabi ham har xil. S.G. Zagoryan (2016), shaxslarning jinoyat sodir etishiga 300ga yaqin omillar ta'sir ko'rsatadi deb ta'kidlagan [6, 42-b.]. Sohada o'tkazilgan tadqiqotlarda, jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lgan shaharlarda jinoyat sodir etilishining tag zamirida faqat bir sabab yoki omil emas, balki qator sharoit va omillar majmui yotadi, degan xulosaga kelingan. Natijada, shahardagi muayyan omillar ta'sirida o'ziga xos geokriminogen vaziyat yuzaga keladi.

Farg'ona viloyatida jami 9 ta shahar, 197 ta shaharchalar mavjud bo'lib, ularda jami 2.3 mln yoki viloyat aholisining 56.9% yashaydi. Jami shahar aholisining 46.6 % shahar, 53.4 % esa shaharcha hududiga to'g'ri keladi. Tumanlar miqyosida urbanizatsiya darajasi va aholining yuqori zichligi jinoyatchilik darajasiga ta'siri xususiyatlari turlicha. Aholisi zich va urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarida jinoyatchilikning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari ham yuqori. Bunday salbiy holat Farg'ona va Qo'qon shaharlarida yaqqol kuzatilmoqda. Furqat, Dang'ara, Oltiariq, Yozyovon, O'zbekiston, Farg'ona tumanlarida aholi transport yo'llari ustida, konus yoyilmasining quyi qismida gavjum joylashgan, hududning demografik sig'imi, jinoyatchilik ko'rsatkichi ham yuqori.

Qo'qon shahri Farg'ona viloyatining aholi soni, zichligi, migratsiya jarayonlari yuqori bo'lgan hududlaridan biri hisoblanadi [1; 2-b.]. Umuman, ma'lum hududda

aholi sonining ortishi asosan tug‘ilish, o‘lim, migratsiya kabi demografik jarayonlarga bog‘liq. Jinoyatlar sodir etilishi esa ko‘proq ijtimoiy muammolarga borib taqaladi. Masalan, 2010-2022-yillarda Qo‘qon shahar aholisi 17,5 foizga (39,5 ming nafar), jinoyatlar soni esa 49,1 foizga (aholining o‘shish ko‘rsatkichidan deyarli 2,8 barobar ko‘p) ortgan. Jinoyatchilikning o‘shishi aholi sonining o‘shishiga nisbatan beqaror xususiyatga ega. Masalan, 2010-2019-yillar oralig‘ida jinoyatchilikning yillik o‘shish sur‘atlarida pasayish kuzatilgan bo‘lsa, 2020-yildan boshlangan Covid-19 pandemiyasi ta‘sirida vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy tanglik jinoyatchilikning 1,8-2 barobar ko‘payishiga olib keldi.

Aholi soni va zichligining ortishi shahardagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga yukni ko‘paytiradi, urboekologik vaziyatni murakkablashtiradi. Mazkur holat geokriminogen vaziyatga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Chet el adabiyotlarida aholi zichligini jinoyatchilikka ta‘sirini ifodalash uchun proksemika¹ tushunchasi keng qo‘llaniladi. Proksemika deganda bitta inson uchun kerak bo‘ladigan maydon (joy) tushuniladi. Proksemika insonning “inson” sifatida qancha maydonni talab qilishi, qancha joyda o‘zini yaxshi his qilishini anglatadi. Bu maydon har bir madaniyat, sinf odami uchun har xil. Masalan, olti kishi istiqomat qiladigan o‘ziga to‘q xonadon vakillari uchun ko‘pincha qasrga xos, juda katta maydonlarni egallaydigan uylarga da‘vo qiladi. Garchi, u yerda to‘rt kishidan iborat o‘rta hol 2 yoki 3ta oilani joylashtirish imkoni bo‘lsada. Demak, ularning proksemikasi (joyga bo‘lgan ehtiyoji) ba‘zi toifa shaxslardan kattaroq, sababi, ularda iqtisodiy imkoniyatlarni yuqoriligidir. Iqtisodiy imkoniyatlarning bo‘lganligi insonlarda yashash hududini kengaytirishga bo‘lgan harakatini kuchaytirishi ko‘p bora o‘rganilgan. Insonlarda proksemika ya‘ni inson uchun kerak bo‘ladigan maydon ma‘lum davr oralig‘ida o‘zgarib turadi. Proksemikaning shaharlarda yuqoriligi, insonlarning joyga da‘vo qilishi darajasi, aholining ijtimoiy munosabatlariga ta‘sir o‘tkazadi, jinoyatlarni vujudga kelishida muhim omil sanaladi. Haqiqatdan ham Qo‘qon shahridagi ma‘lum kattalikdagi bir nechta oila yashaydigan ko‘p qavatli uylar va hovlilar o‘rtasida, shuningdek, ma‘lum ijtimoiy guruhlar masalan, uysizlar, ishchilar yashaydigan ko‘p qavatli uydagi ijtimoiy muhit, geokriminogen vaziyat tubdan farq qiladi.

Qo‘qon shahrida aholining zichligi 1 kv.km ga 7137 kishi to‘g‘ri kelgan holda, bu ko‘rsatkich shaharning mavze va mahallalari bo‘yicha keskin farq qiladi. Masalan, Shaldiramoq mavzesida (Do‘stlik, Tolzor, Istiqlol, Kalvak, Shaldiramoq MFYlari kiradi) 1 kv.km ga 11 495 kishi, A.T.Xo‘qandiy mavzesida (Yangiobod, Zilol, Rayhon, Turkiston MFYlari kiradi) 16 386 kishi, Charxiy mavzesida (Oltin vodiy, Mustaqillik MFYlari kiradi) 21 516 kishi, Alisher Navoiy mavzesida (Alisher Navoiy, Navro‘z, Istiqbol, Shirin MFYlari kiradi) 21 793 kishi, jinoyatchilik darajasi ham har ming aholiga mos ravishda 6.1, 7.6, 7.5, 3.7 tani tashkil etadi va shaharning o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori. 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra ushbu mavzelarga

¹ Proksemika (lotincha “proximus”- yaqin) 1950-60 yillarda amerikalik antropolog Edvard T. Xoll tomonidan ishlab chiqilgan, aholi zichligining xulq-atvor, ijtimoiy munosabatlarga ta‘sirini o‘rganadi [57, 241-b.].

shahar hududining 10,5 foizi, aholisining 25 foizi, jinoyatlarning esa 33 foizi to'g'ri kelgan. Demak, aholi zichligi va jinoyatchilik o'rtasida o'zaro aloqalar mavjud.

Qo'qon shahri aholisining yosh va jins tarkibi geokriminogen holatga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Aholining yosh va jins tarkibi hududlarda o'lim ko'rsatkichlarining yuqoriligi va uning tug'ilish bilan nisbati, milliy qadryat, urf-odatlar, aholining ko'chib ketishi va ko'chib kelishi kabi omillar kiradi. Shahar aholisining yosh tarkibida 33,8 foizi voyaga yetmaganlar (har uchtadan biri 18 yoshgacha) va 18 foizini esa yoshlar (18-30 yosh), ya'ni shahar aholisining yarmi 30 yoshgacha bo'lgan qismi tashkil etadi. Jinoyatchilarning yosh tarkibi tahlili natijasida shaharda jinoyat sodir etgan shaxslarning $\frac{1}{2}$ qismi 30 yoshgacha bo'lgan shaxs hisoblanadi. Qo'qon shahrida jinoyat sodir etgan shaxslar tarkibida yoshlar ulushi yuqori va bu mahallalar kesimida farqalanadi. Voyaga yetmagan va yoshlar uchun o'g'rilik, zo'rlash, bezorilik, 30 yoshdan oshgan shaxslar uchun esa poraxo'rlilik, firibgarlik, talonchilik, tan jarohati yetkazish, iqtisodiy jinoyatlar sodir etilishi xosdir. A.Qayumov olib borgan tadqiqotlarda jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar orasida hech qayerda o'qimaydigan, oilaviy muhit buzilgan va ishlamaydiganlari asosiy qismini tashkil etgan [8]. Shu nuqtayi nazardan, mas'ul idoralar o'zaro hamjihatlikda ish ko'rishi, zarur holatlarda yordam ko'rsatishi lozim. Shu ma'noda mutasaddi idoralar tomonidan fuqarolar orasida tushuntirish ishlarini kuchaytirish, odamlardagi mas'uliyat xissini oshirish zarur. Ko'ngilochar maskanlarida tungi vaqtlarda voyaga yetmaganlarning bo'lganligi aniqlanib, ularning katta qismi maktab o'quvchilari ekanliklari qayd etilgan.

Voyaga yetmaganlarning xulq-atvorida mazkur ijtimoiy salbiy illatga bo'lgan moyillikning shakllanishi bevosita oilaviy muhit bilan bog'langan. Soha mutaxassislari, voyaga yetmagan shaxslarning jinoyat sodir etishiga asosiy omil sifatida bola yashaydigan oila muhitini e'tirof etadi. Shuningdek, farzandlar tarbiyasi bilan ota – onalar yetarli darajada shug'ullanmaganligi, oiladan ajralishlar sonining ortib borishi, globallashuv jarayoni hamda virtual olamning psixologik jihatdan salbiy ta'siri va h.k.larning salmog'i yuqori.

Jinoyat sodir etgan shaxslarning jins tarkibida jinoyat sodir etish asosan, erkaklar uchun xosligini ko'rsatadi. 2022-yilda Qo'qon shahrida sodir etilgan jinoyatlarning 81.7 foizi erkaklarga, 18.3 foizi xotin-qizlarga to'g'ri keldi. Umuman, har qanday davlatda ham ayollar erkaklarga nisbatan bir necha marta kam jinoyat sodir etadi. Ma'lumki, ayollar tabiatiga ko'ra, erkaklarga qaraganda rahmdil va muloyim bo'ladilar, shuningdek, ular oilaga, uy xo'jaligiga, bola tarbiyasiga ko'proq bog'langanligi sababli ham jinoiy faoliyatda kam ishtirok etadilar [7, 116-b.]. Shuning uchun ham ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar nisbatan xavfli ijtimoiy xususiyatga egaligi bilan tashvishlidir.

Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlar va geokriminogen vaziyatni shakllanishida shaharning milliy-etnik tarkibi muhim. Masalan, 2010-yilda shahar aholisining 88,9 foizini o'zbeklar, 4,3 foizni ruslar, 2,2 foizini tojiklar, 1,2 foizini

tatarlar, armanlar, 2022-yilda esa o'zbeklar 93,2 foizni, 2,1 foizini ruslar, 2,7 foizini tojiklar tashkil etgan. Tahlildan ayon bo'ladiki, Qo'qon shahri aholisining milliy-etnik tarkibida so'ngi yillarda sezilarli darajada o'zgarishlar sodir bo'lgan. Odatda, shaharning ko'p qavatli turar joy binolarida turli millat vakillari ko'proq jamlanadi. Bunday sharoitda qo'shnichilik aloqalari va munosabatlari sust rivojlanadi. Binobarin, bunday sotsial geografik muhitda fuqarolarni nazorat qilish va tartibga solishda o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga keltiradi. M.Nazarovning Qo'qon shahrida olib borgan sotsial geografik tadqiqotlarida shahardagi istiqomat qiluvchi lo'lilar orasida giyohvand moddalar savdosi yuqori ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan [9, 184-b.]. Shu tufayli jinoyatchilikning oldini olishda ushbu omilni hisobga olish foydadan holi bo'lmaydi.

Darhaqiqat hozirgi kunda shaharning yonma yon joylashgan Yangiobod (70%) va Nurafshon (55%), Turkiston (24%), Rayxon (8%) mahallalarida milliy-etnik tarkib o'ziga xos [11, 245-b.]. Mazkur hududlarga 2022-yilda sodir etilgan giyohvandlik jinoyatlarining har beshtadan bittasi, 2018-yilda esa har uchtadan bittasi to'g'ri kelgan. Aholi orasida giyohvand moddalar savdosi bilan shug'ullanuvchilar anchagina. Olib borilgan sotsial geografik tadqiqotlarda aholining ayrim milliy-etnik guruhlari orasida tilanchilik² qilish eng ommalashgani aniqlandi. Bu esa unga tutash MFYlarning geokriminogen vaziyatiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan. Shaharda joylashgan avtovokzallar, parklar, bozorlar, savdo majmualari hududlarida tilanchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarni uchratish odatiy holga aylangan. Bunday hol, ayniqsa shaharning tarixiy obyektlari joylashgan Xudoyorxon o'rdasi, Adabiyot muzeyi, Kamol qozi madrasasi, Norbutabiy masjidi va h.k.larda avj olganligi turizm nuqtayi nazaridan ham ijobiy hol emas.

Aholining jinoiy faoliyatida migratsiyaning roli ham o'ziga xosdir. Migratsiyada asosan mehnat yoshidagi aholi ishtirok etadi. Jinoyat sodir etgan shaxslarning ham aksariyati mehnat migratsiyasi yoshidagi aholiga to'g'ri keladi. Aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishida, ayniqsa mehnat migratsiyasiga ishsizlik eng katta ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari iqtisodiy-ijtimoiy sharoitdan qoniqmaslik, siyosiy, o'qish va boshqa omillar ham sabab bo'ladi.

Qo'qon shahrining 2012-yildan buyon migratsiya saldosi salbiy ko'rsatkichga ega. Masalan, 2022-yil davomida 1344 nafar aholi ko'chib ketgan bo'lsa, 371 nafar aholi esa ko'chib kelgan, migratsiya saldosi salbiy (-973). Shahar atrofidan bo'ladigan mayatniksimon migratsiya va uning jinoyatchilikka ta'sirini Sankt-Peterburg shahri misolida o'rgangan K.T.Rostov fikricha [10, 77-b.], jinoyatchilikka ko'proq mayatniksimon (tebranma) migratsiya salbiy ta'sir etadi. Mayatniksimon migratsiya migratsiyaning bir turi bo'lib, aholining bir aholi punktidan ikkinchi bir aholi puktiga o'qish, ishlash uchun har kunlik qatnashidir [5, 227-b.]. Darhaqiqat, shaharning Sumbula, Navbahor, Urganji bog', Davronbek, Usta bozor, Shayxon,

² Tilanchilik bilan doimiy shug'ullanish yoki kasb qilib olish holatlari uchun jinoyat kodeksining 127 moddasiga binoan jazo tayinlanadi.

Kalvak, G'isht ko'prik, G'ishtli masjid, Qipchoqariq, Yangiobod, Rayxon kabi MFYlarida joylashgan bozorlar, savdo do'konlari, park, ta'lim, tibbiyot muassasalarida kunning ma'lum qismida aholi gavjum bo'ladi va ijtimoiy nazorat susayadi yoki qiyinlashadi. Natijada, o'g'rilik (ayniqsa, kissavurlik), firibgarlik, talonchilik uchun qulay geokriminogen vaziyat shakllangan.

Tadqiqotda Qo'qon shahrining geokriminogen vaziyati, jinoyatlar soni, tarkibi darajasi va dinamikasiga ta'sir ko'rsatuvchi aholi soni va zichligi, yosh-jins, milliy-etnik tarkibi, oilaviy holati, kunlik harakatlanishi tadqiq etildi. Mazkur tadqiqot Qo'qon shahri misolida o'rganilgan bo'lib, fikrimizcha, izlanishlarni mamlakatimizning boshqa yirik shaharlarida olib borish ham foydadan holi bo'lmaydi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Makhmudov B.Kh. Regional approach in studying the criminogene situation of Kokand city //E Conference Zone. – 2023. – С. 1-3. <https://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1951>
2. Makhmudov Bakhodirjon Khakimjon o'g'li. Types of Criminality and their Territorial Differences (in the example of Kokand City). *Nat Sci* 2023,21(5):1-6.ISSN1545-0740(print);ISSN2375-7167(online). <http://www.sciencepub.net/nature> 01.doi:[10.7537/marsnsj.210523.01](https://doi.org/10.7537/marsnsj.210523.01).
3. Maxmudov, B. X. (2022). Shaharni geokriminogen zonalarga ajratishni ayrim jihatlari (Qo'qon shahri misolida). *Экономика и социум*, (9 (100)), 145-152.
4. Takhirovich, I. O. (2023). IMPACT OF URBANIZATION AND ECOLOGICAL FACTOR ON CRIME. *Conferencea*, 97-99.
5. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi. Darslik. –Т.: “Nodirabegim”, 2019, -254 b.
6. Загорян С. Г. Негативное влияние социальной среды на формирование преступности несовершеннолетних.// Российский следовател. – 2016. № 19. – 40–43 с.
7. Komilova N.K., Maxmudov B.X. Ayollar jinoyatchiligining ijtimoiy-geografik jihatlari (Farg'ona viloyati misolida). //Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda xotin-qizlarning roli. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari//. -Т.: O'zMU. 2022. 116-117 b.
8. Қаюмов А.А. Ўзбекистонда жиноятчиликнинг ижтимоий-географик жиҳатлари: Геогр. фан. номз. ... дис. - Т., 2006, - 155 б.
9. Назаров М.И. Гиёхвандликни ижтимоий ҳодиса сифатида тадқиқ этишининг айрим географик жиҳатлари.// Ҳозирги замон географияси: назария ва амалиёт. Халқаро илмий—амалий конференция материаллари.// – Т., 2006. 183 – 184 б.
10. Ростов К. Т. Геокриминогенная обстановка в Санкт-Петербурге и Ленинградской области. // Дисс... на соис. учен. степ. кан. геогр. наук.. – Санкт-Петербург, 1994. - 225 с.
11. Этнический атлас Узбекистана. / Ответственный редактора: А.Ильхамов. – Т.: Институт “Открытое Общество” – Фонд содействия – Узбекистан, 2002. – 452 с.